

**SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH VA ULARNI MUHOFAZA QILISH****Murodilova Munisa Ziyodullo qizi**  
**Mamajonova Mushtariy Muhiddin qizi****Andijon davlat pedagogika instituti**  
**Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti****Biologiya yo'nalishi ( kechki) 2- bosqich 201- guruh talabalari****Usmonov Dilmurod Dolimovich****Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya o'qituvchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19479450>**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi suv resurslari va undan oqilona foydalanish masalalari, suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi qonunlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, suv tanqisligini oldini olish, ekologik muvoanadni saqlash va barqaror rivojlanishni ta'minlash ishlari tahlil qilingan.

**Kalit so'z:** suv, resurs, ekologiya, gidrologiya, Orol bo'yi, Markaziy Osiyo, Amudaryo, Sirdaryo.

**Аннотация:** Данная диссертация содержит подробную информацию по вопросам водных ресурсов и их рационального использования, воды и водохозяйственного законодательства. В ней также анализируется работа по предотвращению нехватки воды, поддержанию экологического баланса и обеспечению устойчивого развития.

**Ключевые слова:** вода, ресурсы, экология, гидрология, Аральское море, Центральная Азия, Амударья, Сырдарья.

**Annotation:** This thesis provides detailed information on the issues of water resources and their rational use, water and water use laws. It also analyzes the work on preventing water shortages, maintaining ecological balance and ensuring sustainable development.

**Keywords:** water, resource, ecology, hydrology, Aral Sea, Central Asia, Amu Darya, Syrdarya.

Ma'lumki, XXI asrdan boshlab suv - oltin, uran, gaz, ko'mir va boshqa foydali qazilmalardan ko'ra qimmatbaho xomashyo hisoblanadi. AQSH Milliy qidiruv Kengashi taxminiga ko'ra, yaqin 20 yil ichida xalqaro mojarolar xavfning o'sishi aynan ichimlik va qishloq xo'jaligi uchun suv yetishmovchiligi sababli bo'lishini e'tirof etishmoqda. Lekin ayrim hududlarda suv - hayot manbai, insoniyat turmush tarzining yaxshilanishida eng asosiy resurs boyligi hisoblanadi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish davrida iqtisodiyot tarmoqlarining jadal rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil suv resurslarining miqdori va sifatidir. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonun (1993-yil 6-may)ning 106-moddada suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishning iqtisodiy choralari 111 va 112-moddalarida aynan suv resurslaridan mukammal foydalanish va uni muhofaza qilish jadvallarini ishlab chiqish tartibi masalalariga bag'ishlangan. Ushbu masalaning umumdavlat nuqtayi nazaridan dolzarbligi qonunda alohida ta'kidlab o'tiladi. Suv zaxiralarining sifati eng mudim muammolardan biridir. 60-yillardan boshlab Markaziy Osiyoda yangi yerlar keng ko'lamda o'zlashtirildi. Sanoat, chorvachilik komplekslari ekstensiv rivojlantirildi. Urbanizatsiya kuchaydi. Kollektor-zovur tizimlari qurildi hamda daryo suvlari sug'orish uchun muttasil yuqori hajmlarda olindi. Shu bois havza- lardagi suvning sifati tobora yomonlasha bordi. Daryo suvlarining ifloslanishi ekologiya-gigiena va sanitariya-epidemiologiya vaziyatini, ayniqsa, daryolarning quyi oqimlarida

yomonlashtirmoqda. Ikkinchi tomondan, daryo suvlari tarkibida tuzlarning mavjudligi Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va boshqa daryolarning deltalarida tuproqning sho'rlanishini kuchaytirmoqda. Bu esa qo'shimcha melioratsiya ishlarini amalga oshirishda, zovur tizimlarini barpo etish va tuproq sho'rini yuvishda yaqqol sezilmoqda. O'zbekiston va qo'shni mintaqalar sharoitida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Aholi punktlarini odatdagi vodoprovod suvi bilan ta'minlash ko'rsatkichi respublikada fakat keyingi besh yillikning o'zida taxminan 1,5 baravar ortdi. Shunga qaramay, ushbu muammo dolzarbligicha qolmoqda. Ichimlik suv ta'minoti manbalarining ifloslanishi respublikada, ayniqsa, Orol bo'yida kasallikka chalinishning yuqori darajasiga sabab bo'lmoqda.» Suvyer yuzasida hayot mavjudligining asosiy shartlaridan biridir. Lekin, hozirgi kunda, tabiatdagi barcha suvlardan bevosita foydalanib bo'lmaydi. Shu bilan birga "suv resurslari" tushunchasini barcha suvlarning sinonimi deb tushunmaslik kerak. Haqiqatan ham bu kategoriya faqatgina tabiatga xos bo'lmay, balki ijtimoiy tarixiy va iqtisodiy bosqichlarda o'zgarib turadi. Hozirgi taraqqiyot bosqichida suv resurslari tabiatdagi barcha chuchuk va o'rtacha minerallasgan, tabiiy holda yoki sun'iy ravishda chuchuklashtirilgan, tozalangan suvlardan iborat bo'lib, ayni paytda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida ishlatilayotgan va ishlatilishi mumkin bo'lgan suv manbalari yig'indisidir.

**XULOSA.** Suv resurslaridan oqilona foydalanish bugungi kunda global ekologik muammolardan biri bo'lib, u nafaqat tabiat muvozanatini saqlash, balki insoniyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Suvni tejash, uni ifloslanishdan himoya qilish va samarali boshqarish orqali mavjud suv zaxiralarini asrab qolish mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, suvdan foydalanish madaniyatini oshirish va ekologik nazoratni kuchaytirish orqali suv tanqisligining oldini olish mumkin. Natijada, suv resurslaridan oqilona foydalanish kelajak avlodlar uchun toza va yetarli suv manbalarini saqlab qolishga xizmat qiladi hamda jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Karimov I.A. – O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdidlar va barqarorlik shartlari. Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Rakhimov Q., Rasulov A. – Suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish. Toshkent: Fan, 2019.
3. Shodimetov Y., Tursunov X. – Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
4. Gleick P.H. – The World's Water: The Biennial Report on Freshwater Resources. Washington DC: Island Press, 2020.
5. United Nations (BMT) – Water for Sustainable Development Report. New York, 2023.